UO‘K 811.111’1:159

INGLIZ TILI IZOHLI VA IKKI TILLI TARJIMA LUG‘ATLARIDA EMOTSIONAL MA’NO IFODALOVCHI SO‘Z TURKUMLARINING LEKSIKOGRAFIK TAHLILI

U.B. Rahmonov

Maqolada ingliz tiliga oid izohli lug‘atlardan Webster hamda inglizcha-ruscha va ruscha-inglizcha ikki tilli tarjima lug‘atlaridagi so‘zlar leksikografik nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Unda aynan undov so‘zlar, ot va fe’l kabi so‘z turkumlariga oid so‘zlar tanlab olinib, ularning leksikografik xususiyatlari ochib berilgan. Ushbu so‘z turkumlaridagi so‘zlarning izohli lug‘atda berilgan ma’no ta’riflari ham ko‘rib chiqilgan, so‘zga berilgan belgi-ishoralar sistemasi ikki tilli tarjima lug‘atlari yordamida qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: *emotsionallik, ishoralar, undov so‘zlar, ot, sifat, leksikografiya, lug‘atlar.*

В статье с лексикографической точки зрения проанализированы слова из толковых словарей английского языка “Вебстер”, а также англо-русских и русско-английских двуязычных переводных словарей. В ней выбраны слова, отосящиеся именно к таким части речи, как междометия, существительные и глаголы, раскрыты их лексикографические особенности. Также рассмотрены определения слов данных частей речи в толковом словаре, с помощью двуязычных переводных словарей сопоставлена система символов, присвоенная слову.

Ключевые слова: *эмоциональность, символы, междометия, существительное, прилагательное, лексикография, словари.*

Real borliqda inson emotsiyasi obyektiv tushuncha sifatida uning mohiyatlaridan biri hisoblanadi. Ularning tushunchalarda va so‘zlarning ma’nolaridagi in’ikosi, ya’ni olamning lisoniy manzarasi darajasidagi in’ikosi so‘z va matn namoyishlarida kuzatiladigan shakl sifatida chiqadi. Emotsional leksikani hozirgi kunda izohli va ikki tilli lug‘atlar misolida bugun mavjud leksikografiya metodlari vositasida amaliy yo‘sinlarsiz talqin qilib bo‘lmaydi.

So‘zlarning ma’nolarini sharhlab, izohlab tushuntirib beruvchi lug‘at izohli lug‘at deyiladi. Bunday lug‘atlar bir til doirasida bo‘lib, jahon tilshunosligida keng tarqalgan. Bular qatoriga 5 tomlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2020), I.R.Galperinning “Большой англо-русский словарь” (“Inglizcha-ruscha katta lug‘at”) (1972), S.I.Ojegovning “Толковый словарь русского языка” (“Rus tilining izohli lug‘ati”) (1988), S.A.Kuznesovning “Большой толковый словарь русского языка” (“Rus tilining katta izohli lug‘at”) (1998), “The Merriam-Webster dictionary” (“Meriam-Vebster lug‘ati”) (2016), “Oxford dictionary of Current English” (“Hozirgi ingliz tilining Oksford lug‘ati”) (2006), “Cambridge dictionary” (“Kembridj lug‘ati”) (2008) va boshqalar kiradi

Ikki tilli tarjima lug‘atlariga esa “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” (1959), “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at” (1954), 2 tomlik “Русско-узбекский словарь” (1984), O.S.Axmanovaning “Англо-русский словарь” (1974), V.K.Myullerning “Полный англо-русский и русско-английский словарь” (2013), Sh.Bo‘tayevning “Inglizcha-o‘zbekcha – o‘zbekcha-inglizcha lug‘at”i (2013) kabilar kiradi.

Bundan tashqari bugungi kunda eng takomillashgan lug‘atlar qatoriga elektron lug‘atlarni ham kiritish mumkin. Bu lug‘atlar bir necha tillarni o‘z ichiga olganligi bilan ahamiyatli. Bu lug‘atlardan kompyuterlarda, planshet va telefonlarda ham foydalanish mumkin.

Maqolada izohli va ikki tilli lug‘atlardagi leksikografik talqinga e’tibor qaratildi. Leksikografik tahlil qilish maqsadida *izohli* lug‘atlardan *Webster* [1] hamda ikki tilli tarjima lug‘atlaridan esa *Myuller* [2] lug‘atlari tanlab olindi.

Emotsional so‘zlar doirasida undov so‘zlar

alohida o‘rin egallaydi. Undov so‘zlar ma’nosida nominativ aspekt nolga teng. Ammo bu undov so‘zlar emotsiya – his-tuyg‘u, hissiyot, ruhiy kechinmalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodasi degani emas [3. B. 225–226]. Til – bu emotsiyaning bevosita ifodasi, hissiyotning til orqali namoyon bo‘lishidir. Undov so‘zlar orqali bildirilgan emotsiya intellekt, zakovat orqali ro‘yobga chiqadi. Emotsiyaning bevosita ifodasi – g‘ayriixtiyoriy his-tuyg‘u, baqiriq-chaqiriq yoki shunga o‘xshash holat shaklida namoyon bo‘ladi. Undov so‘zlar ana shunga yaqin turadi. Undov so‘zlarning o‘ziga xosligini ana shu beixtiyor *qichqiriqlar, ingrash, ixrash, voy-voylash, kulgi, uflash, oh-vohlar* bilan qiyoslash orqali anglash mumkin va ularning barchasida emotsiya ro‘yobga chiqadi.

Undov so‘zlar birgina ingliz tilida emas, balki o‘zga tillarda ham emotsionallikni ifodalay oladi. Undov so‘zlar tilning pragmatik qatorida turli xil variantlarga tayyor holatda tursa-da, sintagmatik qatorga ko‘chishida vaziyatga muvofiq tarzda kechadi. Zero, emotsional holatlar yuz berganda kishi o‘ylab o‘tirmasdan uni ma’lum bir til birligi vositasida ifodalashga harakat qiladi. *Oh, Alas, Ah, Damn, Poor, Push, Well* kabi undovlar muayyan emotsionallikni ifodalab keladi.

Undov so‘zlarning lingvistik tabiatiga maxsus ilmiy tadqiqotlar bag‘ishlangan [4]. Mazkur tadqiqotda bunday so‘zlar toifasi emotsional mazmundorlik va leksikografik interpretatsiya, talqin jihatidan e’tiborga mansub. Agar S.B.Berlizon nuqtayi nazaridan qarab, til birligi bo‘lgan undov so‘zlarning keng emotsional diapazoni muayyan hissiyot uyg‘otmasligi, ularning konkret emotsional mazmuni og‘zaki nutq orqali ifodalanishi, u yoki bu undov so‘z turi kontekstda turlicha, ba’zan qarama-qarshi his-tuyg‘ularni bildirishini [5. B. 11] e’tiborga olinsa, bunday so‘zlarni lug‘atlarda aks ettirish masalasini yopiq hisoblash mumkin. Bunga qarshi ba’zi e’tirozlar ham yo‘q emas. Birinchidan, undov so‘zlarni til hodisasi sifatida baholaydigan bo‘lsak, unda okkozional ma’no masalasi avtomatik ravishda, beixtiyor kun tartibidan olib tashlanadi. Ikkinchidan, lug‘atlarda aks ettiruvchi mutlaqo aniq ma’noga ega, keng semantikali ataluvchi fe’llarning mavjudligi va ularning ma’nodorligi bu so‘z birligining konkret leksikografik interpretatsiyasiga to‘sqinlik qilmasligiga eng ishonchli misol bo‘la oladi.

“Sof” emotsional so‘zlarning guruhi emotsionallik ma’nosini ajratish xususiyatlarini belgilaydi. Undov so‘zlarning ma’nosi o‘xshash so‘zlar bilan qiyoslash orqali emas, ular ishlatilayotgan vaziyat bilan bog‘liq ravishda aniqlanadi. Lisoniy omillarning dalolat berishicha, biror undov so‘zning emotsionallik ma’nosini belgilash jarayonida eng ahamiyatli narsa ma’noning talaffuz bilan bog‘liqligini hisobga olishdir. “Webster on-line”da: “used in writing to represent a sound that is like a quiet cough that people make especially to attract attention or to express disapproval or embarrassment”. Bu yerda undov so‘zning real lisoniy tabiati emas, aniq etimologiyasi aks etyapti. Bu undov *m-m, n-m, hum, humph, ump, oomp, yum* va boshqalar bilan bir qatorda talaffuz va nutqning ifodaviyligiga qarab *hayrat, ajablanish, ozor, ranj, ranj-alam, xafalik, dilsiyohlik, xafagarchilik, shubha, gumon, ma’qullamaslik* holatlarini bildiradi.

Hey undov so‘zi ko‘p ma’noli sanaladi. “Webster on-line”da bu so‘z ham shunday ma’no kasb etadi: *hey – inter. Used to call attention or to express joy, surprise, wonder or interrogation*. Sanab o‘tilgan barcha ma’nolar ularning pozitsion holatini belgilaydi. Agar undov so‘z gap boshida kelsa va baland ohangda talaffuz qilinsa, unda yuqoridagi o‘zaro bog‘liq ma’noni bildiradi. Biroq bu undov so‘z gap oxirida vergul bilan ajratiladi, nutqda pauza va o‘ziga xos alohida ohang bilan aytiladi. Masalan, *So this is your story, hey?* Bunday holatda mazkur undov so‘z birovning ustidan *kulish, masxara (mazax, mayna) qilish, piching, istehzo*ni bildiradi. Ushbu pozitsiyada *hey* hayratni bildirsa ham, baribir, faktga nisbatan maynavozlik, masxarani bildiradi. Yuqorida eslangan lug‘at bu ma’noni ajratmaydi. Mavhum ma’nolarga kelsak, ular shunchaki sanab o‘tilganlar, xolos, ularning reallashuvi, istifoda etilishi ko‘rsatilmagan.

Semantik mezonga asoslangan emotsional so‘zlar tahlilini ot so‘z turkumidan boshlash maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu so‘z turkumining emotsionallik xususiyati ilk bor o‘zbek tilshunosligida A.Fitrat tomonidan qayd etilgan. Uning ta’rifiga ko‘ra, *“bildirgan ma’noga ot bo‘lib taqalg‘on so‘z ot”* deyiladi. Otlarning hammasi borliqdagi “ko‘zga ko‘rinarlik narsa”ni ifodalashi shart emas. *Es, qayg‘u, zulm* kabi “ma’nosi ko‘zga ko‘rinmas ot”larning ham mavjudligi ta’kidlanadi. Bu bilan olim otlarning ma’no ji-

hatidan aniq va mavhum turlarga ajralishiga ishora qiladi [6. B. 56]. Ular ma'nosining emotsional aspekti asosiy ma'no doirasida nominativ aspekt bilan hamjihatdir. Emotsional ma'no bu yerda nominativ aspekt tufayli yuzaga keladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, komponentli tahlil bunday so'zlar tahlilida asosiy metod sanaladi. Tadqiqotda so'zlar ma'nosini komponentlarga ajratishning intellektual va emotsional aspektlarga ajratish nazarda tutiladi.

Misol uchun, *informer* va *stool pigeon* so'zlarini olamiz. Bular – sinonim so'zlar, faqat ular ma'no tarkibidagi tavsifiylik xarakteri bilan farqlanadi. Biroq inglizcha-ruscha lug'atlar *доносчик (провокатор), осведомитель* kabi bir xil tarjimasini tavsiya qiladilar. Shaxsni ifodalovchi nominativ birlik shaxs sifatini, xususiyatini ifodalovchi nominativ birlikka aylanadi, chaqimchi, gap tashuvchi degan umumiste'molga qabul qilingan salbiy denotatsiya hosil bo'ladi. Emotsionallikka ishoralar yo'q. Shu narsa aniqki, ularning muayyan predmetlik ma'nodorligiga qaramay, bir xilda teng qimmatga ega emas. Agarda *informer* so'zi nominativ ma'nosi va salbiy konnotatsiyasi bilan baribir nisbiy neytral kontekstda qo'llanila olmasa (ayniqsa, gap mirshabxona haqida ketayotgan bo'lsa), unda *stool pigeon* faqat "iltifotsizlik", "haqorat" (disparaging, opprobrious) ma'nolarida ishlatiladi. Masalan: *As a matter of fact he's one of my best informers* (Our Man, 114).

Shunga ko'ra, xulosa qilish mumkinki, lug'atda *informer* so'ziga oid maqolada bu so'zning ham terminologik qo'llanilishini ajratish lozim, ham shu ma'no doirasida *"неодобрительно*" ma'nosida qo'llaniladi, qabilida ishora berish lozim.

Endi ot so'z turkumiga oid emotsional ma'nolar aspektida ko'p ma'noli so'zlar semantik strukturasidan mustaqil ma'nolarni ajratishga imkon beradigan so'zlar guruhi tahliliga e'tibor qilamiz. Bunday otlar emotsional ma'nosi bizni qiziqtirayotgan so'zning asosiy tarkibiy qismi konnotatsiyaga ega bo'lmagan nominativ-neytral ma'nodan iborat leksik-semantik guruh so'zlari bilan chog'ishtirish orqali aniqlanadi. Qolaversa, ma'nolarning o'xshashligi masalasini o'rganish mazkur tadqiqot maqsadiga kirmaydi, bu yerda guruhdagi so'zlarning umumiy semantik yo'nalishi tufayli erishiladigan ma'nolar "yaqinligi" yetarli. Bu ma'lum darajada mazkur guruhga qandaydir semantik yaqin so'zlarning "tushunarliligi"ni ta'minlaydi. Bu mezonlar, masalan, *gentleman, person, man, boy, fellow, chap, individual, bird, bozo, bloke, card* kabi so'zlarning muayyan paradigmadagi umumiyligini ko'rsatishga asos bo'ladi. Biroq bu yerda keltirilgan so'zlarning o'zaro farqlari kunday ravshan. Bu farq ma'no emotsionalligi darajasiga bog'liq. Bu so'zlar ma'nosini nima birlashtiradi-yu, nima ajratib turadi? Bu yerda umumiy va farqli belgilarni ajratish, demak, ma'nolarni alohida komponentlarga ajratish lozim ko'rinadi.

"Fellow, chap, boy" va *"bozo, card, bird, bloke"* kabi so'zlar guruhining lug'atdagi ta'riflari deyarli bir xil, chunki lug'at tuzuvchilar ko'pincha leksikaning sistemali baholash mezonlarini unutib qo'yishadi, yoki nazardan soqit qilinishi, yoki shunga o'xshash urf bo'lgan an'ana bilan ish ko'riladi. Birinchi guruh so'zlar rus tiliga "*молодой человек*", *"парень"* deb o'girilsa, ikkinchi guruhdoshlar xuddi shu so'z va "tip" izohlovchisi bilan beriladi.

Bu qatordagi tahlil qilinuvchi so'z **–** *man,* semantik g'oya mazmuni umumiy tarzda xuddi shu so'zda mujassamlangan. Bu g'oya 1) inson mohiyati; 2) *mujskoy rod* semalari bilan ifodalangan.

Chap so'zi tayanch so'zga qiyosan aytilsa, yana qo'shimcha *"шутливо-ласково"* emotsional semani ham ko'rsatishi mumkin. *He's clever little chap* deganimizda bu sema nutqda aniqlashadi. *Chap* so'zi ishlatilganida, undagi ma'noning intellektual komponenti (*man, boy* so'zlaridagi kabi) haqida emas, J.Anderson aytganidek, o'zimizning fantaziyamiz, tasavvurimizga qanot baxsh etamiz, ya'ni so'zlovchining bolalarni sevishi, balki o'zini ham, bolalarini ham ardoqlashi-yu boshqalarni xayolimizga keltiramiz va hokazo [7. B. 94–95].

Fellow so'zini tayanch so'z va *chap* so'zi bilan qiyoslaganimizda "*фамильярно-пренебрежительно"* semasini ko'ramiz. Buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi: 1. *At that moment a man strolled past them, a big stout fellow showily dressed* (Magican, p.6). 2. *If it hadn't been for the way she went in with that Peter Boone fellow* (Summer, 16).

Chap, fellow so'zlari ham *bird, card, bloke* so'zlari ham "Myuller 3" lug'ati va boshqa lug'atlarda *colloq* ishorasiga ega. Faqat bu qatordagi *bozo* so'zi sleng deb belgilanadi, ammo Myuller

lug‘atida “tip” so‘zi bilan tarjima qilgan. Shunday qilib, “slang” belgisi hech narsadan darak bermaydi. Bu so‘zda, xuddi shuningdek, “razg” ishorasi ham qo‘yilishi mumkin.

Myuller lug‘atidagi bir xil tarjima qilinadigan *bloke, card, bird, bozo* so‘zlarining komponent tahlilini keltiramiz.

Bloke va *card* (ikkovi ham sleng) so‘zlarning ma’nosini chog‘ishtirish uchun misol keltiramiz: *“Now this bloke’s well known on this run as a bit of a card”* (Kind, 38). Bu yerda gap salbiy qahramon haqida ketayapti. Kontekst ham *bloke* so‘zida uchramaydigan *insulting* semasini aniq ta’kidlayapti.

Gentleman so‘zi ingliz leksikograflari uchun hech qanday muammo emas. Bu til sohiblari unda *“aristokratik jamiyatda o‘rnatilgan xatti-harakatlar qoidalari va me’yorlariga qat’iy rioya qiladigan kishi”* semasini aniq-tiniq ajratadilar. Bu sema mazkur so‘zni nafaqat terminologik (qiyos.: *man***)**, balki *“tasdiqlash”* (*approval*) emosional-tavsifiy xususiyatiga ega so‘z deyishga asos bo‘ladi.

Bu so‘z ikki tilli lug‘atlar oldida katta muammo hosil qiladi. Agar hatto Myuller lug‘atida berilgan *“хорошо воспитанный и порядочный человек”* tarjimasini maqbul hisoblaydigan bo‘lsak, bu xorijiy so‘zlarning boshqa tillarda o‘ziga xos aks etishi bilan bog‘liq va bunda *“одобрительно”* emotsional belgisiga ehtiyoj sezadi.

Tavsiflanayotgan guruhdagi barcha otlar shu tariqa tahlil qilinishi mumkin. Tahlilning bu jarayonlarini yana takrorlamaslik maqsadida misol sifatida bir necha leksik-semantik guruh keltiramiz.

1. *Woman, female, lady, girl, wench, slut, squaw, skirt, bird, chicken…*

2. *Servant, slave, skivvy…*

3. *Mistake, error, blunder…*

Bu guruhlardagi so‘zlarni batafsil tahlil qilmay, faqat aytish lozimki, semantik o‘zaro yaqin so‘zlarning komponent tahlili lyeksikografga emotsional leksikani talqin qilishda qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka yordam beradi, “Myuller-1” lug‘ati, masalan, *chicken, peach* so‘zlarini quyidagicha ta’riflaydi: 1. *Chicken*: 2) *ласк. Ребенок (неопытный) юнец*, *she is no chicken – она уже не первой молодости.*

1. Peach: 4*) разг. Красавица.*

Avvalambor, nima uchun birincha vaziyatda faqat emotsionallik ishorasi mavjud bo‘lib, ikkinchisida esa faqat so‘zdan foydalanish doirasini cheklovchi ishora berilgani tushunarli emas. Bu – birinchidan. Ikkinchidan, *chicken* so‘zining ta’rifida ishora bilan misol o‘rtasida nomutanosiblik mavjud, chunki *she is no chicken* tushunchasini erkalatish ma’nosida qo‘llash aslo mumkin emas. *“Молодая девушка или женщина”* tushunchalarini izohlash yetarli emas, chunki bu jarayonda so‘zning emotsionalligi mutlaqo bilinmaydi. Qandaydir yo‘l bilan izohlash lozimki, bu vaziyatda so‘z deyarli piching, istehzo ma’nosini kasb etib, odatda *no chicken* deyiladi.

Shunday qilib, yoshning o‘tganligiga asosiy urg‘u beriladi. Shu bois, quyidagicha xulosa qilish mumkin: *chicken* so‘zining ma’nosida, unda asosiy guruhning tayanch nuqtasiga xos semalardan tashqari, yana quyidagicha semalar mavjud: 1) “*ласкательно” – обращение к ребенку. 2) “слегка насмешливо” – в отношении женщины.* Xuddi shu ikkkinchi eng tipik sema xiralashgan, aniq-tiniq berilmagan.

Peach so‘ziga kelsak, “Webster lug‘ati” uni quyidagicha tavsiflaydi: *sl. word with the popular meaning, a person or thing likened to a peach because of its sweetness, fairness, or excellence*. “Myuller lug‘ati” taklif qilgan tarjima – *krasavisa* “Webster lug‘ati” ajratib bergan emosionallik semasini mutlaqo yo‘qqa chiqaradi. ALD [8] ma’noni xira, noaniq, lekin ancha ixcham lo‘nda ochib beradi: *peach – 3) slang, a beauty* deb beradi.

Inglizcha-ruscha lug‘atlar mualliflari tarjimada ruscha *“persik”* so‘zidan foydalanib *“красавица”* yoki *“красотка”* so‘zlarini qavs ichida berishgan. Bu so‘zga *“шутливо-ласкательно” (a facetious term of endearment): peach* 2) *разг. – “персик” (красотка)* ishorasi berilsa, maqbul bo‘lardi.

Ot so‘z turkumida o‘zidagi tushunchaga ko‘ra hissiyot, his-hayajonni ifodalovchi so‘zlar alohida ahamiyat kasb etadi: *love, hatred, wrath* – o‘zb: balo, falokat, ofat, ko‘ngilsiz voqea, og‘ir ahvol, baxtsizlik, musibat, kulfat, nafrat, qasos, o‘ch, intiqom, qasd va h. Boshqa barcha tasniflarda bu guruh so‘zlarga alohida e’tibor beriladi, chunki ular emotsional so‘zlar va emotsionallik qo‘zg‘ovchi, “emotsional ma’no” uyg‘otuvchi so‘zlar atrofida oraliq o‘rinni tashkil etadi. F.I.Buslayevning ta’kidlashicha, masalan, “sevgi”, “nafrat” kabi so‘zlarni hamma vaqt emot-

sionallik xususiyatini saqlay oladigan so‘zlar ekanligi bejiz emas [9. B. 52].

“Webster lug‘ati”dagi salbiy emotsiyalarni ifodalovchi guruh so‘zlari talqini ham ko‘pincha emotsiya spetsifikasining qiyofasini, bu bilan, shubhasiz, so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirib yuboradi. Hatto mualliflar, masalan, – *anger – a feeling that may result from injury, mistreatment, opposition, etc… it usu*. *Shows itself in a desire to hit…* bu o‘ziga xoslikni ta’riflamoqchi bo‘lganlarida ham, lug‘aviy tavsif oxirida *wrath, indignation, rage* deb qo‘shib qo‘yishadi. Qolaversa, bunday sanoq “sinonimlar” qatoriga ham to‘g‘ri kelmaydi, ya’ni bu so‘zlar *anger* so‘ziga tenglashtiriladi. Bu lug‘atda *wrath* so‘zi *intense anger, rage, fury* deb tushuntiriladi. Ammo *anger* va *wrath* so‘zlari o‘rtasidagi farq nafaqat oxirgi so‘zning o‘ziga xos jiddiyligi, balki shiddatliligidan hamdir. *Wrath* so‘ziga tegishli tavsif uni ko‘rsatmaydi, bunga qo‘shimcha yana ikkita *rage, fury* so‘z bu to‘rtta so‘zni teng qiymatli so‘zlar qatorida birlashtiradi. Bu so‘zlar qo‘llanilgan kontekstlar 1. *Frustration churned up his rage into a foam of fury* (Summer, 216). 2. *Oliver’s face turned red with furious anger* (Magician, 33) ularning individualligini aniq-tiniq ta’kidlab turadi.

Otlarning tahlilini tugatib, ma’noning emotsional aspekti asosiy ma’no doirasida nominativ aspekt bilan birga mavjud bo‘ladigan, bunda emotsional aspekt nominativ aspekt tufayli kelib chiqadigan fe’llarning tahliliga kirishamiz. O‘zbek tiliga “gapirmoq, valdiramoq, vaysamoq” deb tarjima qilinuvchi ingliz tili fe’llarining *chat, chatter, gossip, tattle* kabi qatorini misol tariqasida olishimiz mumkin. Bu qatorning eng zaif fe’li – *to chat* o‘zining individual semasini namoyon qiladi – *to talk or converse in a light, easy, informal manner. To talk* fe’li bilan qiyoslanganda bu sema kontekstda nozik emotsional baholash ma’nosi bilan birga kelib, u “salbiy munosabat” deya ta’riflanishi mumkin. Masalan, *He gathered us to talk, but it meant to chat, and you know how I like it.* Bu fe’lning emotsional konnotatsiyasi yuqorida sanab o‘tilgan boshqa fe’llarning ma’nolarida ayniqsa kuchayadi. Masalan, *to chatter* fe’li “tez va ahmoqona gapirmoq, valdiramoq” degan doimiy semani o‘z ichiga oladi. Bu sema mazkur qatordagi boshqa so‘zlar bilan qiyoslanganda “aniq salbiy munosabat” (*strong disapproval*) deya ta’riflanishi mumkin bo‘lgan konnotatsiyani nazarda tutadi. *Gossip* so‘zi o‘zining mazmun tuzilishida “valdiramoq, boshqalar haqida mish-mish tarqatmoq” semasining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bu sema ifodalaydigan emotsional ma’no “mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik” (*disparaging*) deya ta’riflanishi mumkin. Va nihoyat*, to tattle,* shuningdek, *to gossip* fe’lining ma’nosidan ajratib olingan semani ham o‘z ichiga oladi. Biroq *tattle* so‘zining tovush qobig‘i (–*of echoic origin* ma’lumotiga ko‘ra) bu so‘zning emotsional ma’nosiga ma’lum ta’sir o‘tkazadi hamda aynan o‘sha semaning o‘ziga xos amal qilishiga imkon tug‘diradi. Bu fe’l og‘zaki nutq uchungina xosdir (afsuski, lug‘atlar buni ko‘rsatmaydi), *disparaging* belgisi esa *a facetious term of disparagement* belgisi bilan murakkablashtirilishi zarur. Tahlil qilinayotgan lug‘atlarda na bir-biridan, na guruh bo‘laklaridan hech narsasi bilan ajralib turmaydigan *to gossip* va *to tattle* fe’llari orasidagi farq aynan mana shundan iborat. Shunday bir misol keltiramiz: *You won’t tattle, will you, Missouri? About what a liar I am?* (Voices, 56). Bu misoldan shu narsa ravshanki, mazkur kontekstda *tattle* so‘zi *gossip* so‘zi bilan almashtirilishi mumkin emas. Bu o‘zidan keyingi *Will you?* bilan ziddiyatga kirishishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bola bir tomondan Missurini kamsitmoqchi emas, boshqa tomondan esa, agar u hamma narsa haqida og‘zidan gullab qo‘ysa, juda yomon ish qilgan bo‘lishini aytib qo‘yishni xohlayapti, ya’ni buni u qoralaydi. O‘xshash fe’llarning semantik tuzilishi murakkabligi ham mana shundan iborat.

A.Vejbitskayaning tadqiqoti natijalariga tayanib ish olib borgan S.V.Ionova ingliz tiliga xos bo‘lmagan rus tili emotiv sintaksisining o‘ziga xos qiziqarli xususiyatini qayd qiladi va qanday vositalar bu sintaktik usulni ingliz tilida almashtirishga xizmat qilishini kuzatadi. Rus tilining sintaktik strukturasida jismoniy va emosional ma’noli, majhul nisbat fe’llarini va emotsional holat predikatlarini ishlatishga asoslangan maxsus shaxssiz konstruksiyalar mavjud [10. B. 146]. A.Vejbitskayaning kuzatishi bo‘yicha, bunday holatlarni ifodalash uchun ingliz tilida o‘timsiz fe’llarning juda cheklangan doirasi mavjud (*to worry* **“**bezovta bo‘lmoq, xavotir olmoq, qayg‘urmoq, g‘am yemoq, hayajonlanmoq, to‘lqinlanmoq, hayajonga kelmoq, iztirobga tushmoq”, *to grieve* “qayg‘urmoq, g‘am yemoq, kuymoq,

achinmoq, hasrat chekmoq, xafa bo‘lmoq, dili og‘rimoq, ranjimoq, ozor chekmoq, qayg‘uga tushmoq, *to rejoice* “xursand (shod) bo‘lmoq, sevinmoq, quvonmoq”, *to pine* “azob chekmoq, qiynalmoq, siqilmoq, siqilib ketmoq, intizor bo‘lmoq, tinkasi qurimoq” va h.), ularning ba’zi birlari bilan konstruksiyalar esa eskirgan, stilistik yoki kinoyali xarakterga ega [11].

Endi bu so‘zlarning semantik tuzilishida mustaqil ma’nolarning ajralib turishiga, shuningdek, ma’nolarning emotsional aspektlari yordam beradigan fe’llarga murojaat qilamiz. Otlar kabi fe’llarning bunday emotsional ma’nolari betaraf fe’llar bilan, shuningdek, ma’nolarning emotsional aspektlari asosiy ma’noning nominativ doirasida birga mavjud bo‘ladigan fe’llar: *to laugh, to giggle, to titter, to hoot, to cackle, to bark, to roar, to cachinnate, to bellow, etc., etc.* bilan bir qatorda ko‘rib chiqilishi kerak. *To laugh* so‘zi bu yerda tayanch so‘z sifatida berilgan bo‘lib, mazkur tayanch so‘zda mavjud umumiy semantik g‘oyalar bu qatorning barcha bo‘laklari uchun xosdir. *To giggle* va *to titter* fe’llari intellektual ma’lumotni o‘z ichiga olgan doimiy komponentlardan tashqari bu ish-harakatning maqsadi va vazifasini, balki uning kechishi xarakteristikasini ko‘rsatuvchi komponentlarni ham o‘z ichiga oladi va fe’llar quyidagicha izohlanadi: 1. *To giggle – to laugh with a series of uncontrollable, rapid, high-pitched sounds, suggestive of foolishness, etc., titter*. 2. *To titter – to laugh in a half suppressed way, suggestive of foolishness, nervousness, etc. giggle*.

To titter fe’lini yuqorida eslatib o‘tilgan fe’l bilan qiyoslab, bu fe’lning jarangdorlikni, ohangdorlikni ifodalashini va uning emotsional mazmuniga ta’sirini ko‘rsatish lozim, ya’ni bu so‘zning etimologiyasi qo‘shimcha “masxaraomuz, hazil aralash” emotsional semasini ajratib ko‘rsatishga imkon tug‘diradi, bu sema mazkur fe’lning ma’nosida ma’lumotning intellektual asosini o‘z ichiga oladigan semasi bilan bir qatorda, shuningdek, *to giggle* fe’lining emotsional ma’nosida, ajratib ko‘rsatilgan semasida ham mavjuddir. Shunday filib, *to giggle* va *to titter* fe’llarining ma’nosi yuqorida qayd qilingan ikkita sema bo‘yicha bir-biriga mos keladi. Biroq “masxaraomuz, hazil aralash” qo‘shimcha semasi *to titter* fe’lining o‘ziga xosligini ta’kidlab ko‘rsatadi va uning tilda to‘la huquqli faoliyatini izohlab beradi.

Cachinnate, hoot, bark, roar, cackle fe’llari mazah qilayotganning ruhiy holatini, ko‘pincha uning xarakterini va hokazolarni xarakterlovchi semalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, *to cackle* so‘zi “qattiq va chinqirib kulmoq”, *to bark* – “kuchli, qo‘pol kulgi”, *to roar* – “darg‘azab, shiddatli kulgi” semalarini o‘z ichiga oladi: *The audience opened its mighty mouth and roared with laughter* (Craddock, 270), *to cachinnate* – “qattiq va ko‘p kulmoq”, *to hoot* – “quloqni qomatga keltiradigan darajada kulmoq” kabi semalarni o‘z ichiga oladi va h. Barcha sanab o‘tilgan fe’llar zoometaforik leksemaga oid misollar hisoblanadi, ular odatda insonga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘lsa, haqoratomuz yangraydi. Shunday qilib, “haqoratomuz” emotsional-baholash semasi bu fe’llarning ma’nosi tagida bor bo‘lgan asosiy ma’lumotdir. Biroq bu so‘zlar qatori barchasining taqlidiy xarakteri – “hazilomuz qo‘llanish mumkinligi” qo‘shimcha semasini ajratib ko‘rsatish imkonini berib, semalari tahlil qilinayotgan mazkur fe’llarning tabaqalashtirilgan qo‘llanilishi asosida yotgan, yuqorida qayd qilingan semalar singari so‘zlarning ma’nosiga kiradi: 1. *This jest called for loud laughter from me, a sudden hoot and cackle from Mr. Goff, and wild Barking from the Airedales* (Tea, 138). 2. *She wasn’t merely giggling. She was merely cachinnating* (Leaves, 115).

Berilgan matnning emotsional ma’nolarini to‘liq anglab yetish uchun lug‘atda mazkur fe’llarning intellektual semasini ajratib ko‘rsatish lozim. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, ikkala emotsional semani ikkilangan emotsional belgi, ya’ni “hazilomuz, mensimay, kamsitib (haqoratomuz)” tarzida bergan ma’qul. Har bir qo‘llanishdagi aniqlikni, bu komponentlardan qaysi biri hukmronlik qilishini kontekstning o‘zi aytib beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hissiyotning teranligi va intensivligining tahlili leksikografiya amaliyotida munosib o‘rnini egallashi shart. Bunday tahlilni olib boruvchi tilshunos – his-tuyg‘u, sezgirlik, fahm-farosat, did, hissiyot psixologiyasi haqidagi ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Ingliz va rus tillarining izohli lug‘atlari tahlilidan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz tili lug‘atlari (rus tili izohli lug‘atlariga qaraganda) berilgan emotsional ma’nolarning ancha aniq, konkret, nozik, serqirra tahlilini taqdim etgan.

Adabiyotlar:

1. Webster's Third New International Dictionary, Unbridged. – Massachusetts: Merriam-Webster, 1993. – 2662 p.
2. *Мюллер В.К.* Польный англо-русский русско-английский словарь. – Москва: Эскмо, 2013. – 1326 с.
3. *Lewis C.S.* Studies in Words. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 342 p.
4. *Вежбицкая А*. Язык. Культура. Познание. – Москва: Русские словари, 1996. – 416 с.
5. *Берлизон С.Б*. Некоторые средства выражения эмоциональности а лексике и фразеологии современного английского языка. // Материалы конфереции актуальные проблемы лексикологии. – Пятигорск, 1967. – С. 11–18.
6. *Нурмонов А*. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 232 б.
7. *Anderson J.* A study of English Words. – Victoria: Leapold Classic Library, 2017. – 136 p.
8. Oxford Advanced Learner's Dictionary. [Online]. URL: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english (Date of Access: 09. 12. 22)
9. Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. – Москва: Директ-Медиа, 2014. – 628 С.
10. *Ионова С.В*. Эмотивный фон и эмотивная тональность как элементы содержания текста / В кн.: Языковая личность: вербальное поведение: сборник научный. тренинг. – Волгоград: РИС, 1998. – С. 36–41.
11. *Мамушкина С.Ю*. Семантика и прагматика междометий в современном английском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Самара, 2003. –175 с.

LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF WORD GROUPS EXPRESSING EMOTIONAL MEANING IN ENGLISH EXPLANATORY AND BILINGUAL TRANSLATION DICTIONARIES

Ulugbek B. Rahmonov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5 (73). 116-123.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: emotionality, markings, interjections, noun, adjective, lexicography, dictionaries.

In this article, the words from the world-famous explanatory dictionaries of the English language, Webster, and English-Russian and Russian-English bilingual translation dictionaries are analyzed from a lexicographic point of view. The emotional lexicon can now be described by means of lexicographical methods available today, for example, explanatory and bilingual dictionaries. These are not only book dictionaries, electronic dictionaries can also be included among the most advanced dictionaries today. These dictionaries are very important because they contain several languages and can quickly look up words. These dictionaries can also be used on computers, tablets and phones. Most language learners or tourists use these dictionaries and prefer them. For the purpose of lexicographic interpretation of emotional lexis, it is important to put emotional signs in English explanatory and bilingual translation dictionaries. Because it also affects the meaning of the word. Only signs that limit the scope of use of a word do not provide complete information about the specificity of its meanings. Therefore, it is necessary to determine the general emotional characteristics of the word and its specific connotation. Taking into account the fact that the emotional lexicon is subject to the natural process of language development. This is not always reflected in dictionaries.

Dictionaries have very few emotional meanings, and in most cases they are mixed. None of the analyzed dictionaries have the ability to identify different types of emotional meanings. Most dictionaries have dropped emotional meanings along with emotional symbols.

In the article, for the purpose of lexicograph-

ic analysis, explanatory dictionary Webster's and Muller's dictionaries were selected from bilingual translation dictionaries. It reveals the lexicographic aspects of selected words related to word groups such as exclamatory words, nouns and verbs. Definitions of the words in these word groups in the explanatory dictionary were also examined, and the system of symbols given to the word was also compared with the help of bilingual translation dictionaries. The mechanisms of the language sign of the speaker's emotions in the language, the interpretation of emotions as the objective essence of the speaker and the listener, in general, should be different from each other.

The analysis of dictionaries shows the presence of various signs of emotionality. We can see that the compilers of dictionaries, in fact, did not deal specifically with the systematization of these signs and, accordingly, did not create criteria for distinguishing types of emotional meaning, even when we look at the world famous dictionaries on the surface. The analysis of dictionaries shows the presence of various signs of emotionality. Compilers of dictionaries, in fact, did not specifically deal with the systematization of these signs and, accordingly, did not create criteria for distinguishing types of emotional meaning.

References:

1.Webster's Third New International Dictionary, Unbridged. (1993) Massachusetts: Merriam-Webster

2. Myuller, V.K. (2013) *Pol'nyj anglo-russkij russko-anglijskij slovar'* [Complete English-Russian Russian-English dictionary]. Moscowk: Eskmo.

3. Lewis, C.S. (2013) *Studies in Words.* Cambridge: Cambridge University Press.

4. Vezhbickaya, A. (1996) *Yazyk. Kul'tura. Poznanie* [Language. Culture. Cognition] . Moscow: Pusskie slovari.

5. Berlizon, S.B. (1967) Nekotorye sredstva vyrazheniya emocional'nosti a leksike i frazeologii sovremennogo anglijskogo yazyka [Some means of expressing emotionality in the vocabulary and phraseology of modern English]. In: Materialy konferecii aktual'nye problemy leksikologii [Conference materials: current problems of lexicology]. Pyatigorsk. Pp. 11-18.

6. Nurmonov, A. (2002) *O'zbek tilshunosligi tarixi* [History of Uzbek linguistics]. Tashkent: Uzbekistan.

7. *Anderson, J.* (2017) *A study of English Words*. Victoria: Leapold Classic Library.

8. Oxford Advanced Learner's Dictionary. [Online]. URL: (Date of Access: 09. 12. 22)

9. Buslaev, F.I. (2014) *Istoricheskaya grammatika russkogo yazyka.* [Historical grammar of the Russian language]. Moscow: Direkt-Media.

10. Ionova, S.V. (1998) Emotivnyj fon i emotivnaya tonal'nost' kak elementy soderzhaniya teksta [[Emotive background and emotive tone as elements of text content]. In: Yazykovaya lichnost': verbal'noe povedenie: sbornik nauchnyj. trening. [Linguistic personality: verbal behavior: scientific collection. training]. Volgograd: RIS. Pp. 36-41.

11. Mamushkina, S.Yu. (2003) Semantika i pragmatika mezhdometij v sovremennom anglijskom yazyke [Semantics and pragmatics of interjections in modern English]. The Dissertation for the Candidate of Philological Sciences. Samara.

Muallif haqida ma'lumot:

RAHMONOV Ulug'bek Bahodirovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Andijon davlat universiteti fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi. E-mail: lazyboy27@mail.ru